

BO'LAJAK PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK BILIMLARNING O'RNI

Abdumannotova Nargiza Abdumajidovna
Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
Samarqand, O'zbekiston

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo'lachak pedagog kadrlarni tayyorlash tizimida ta'lim sifatini oshirishda psixologik bilimlarning ahamiyati borasida fikrlar berilgan. Shuningdek, talaba-yoshlarga beriladigan bilimlarni mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish lozimligi haqida aytilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, stress, intellekt, mustaqil fikr, tanqidiy tafakkur.

РОЛЬ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ЗНАНИЙ В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Абдуманнотова Наргиза Абдумаджидовна
Преподаватель Самаркандского государственного педагогического
Института Самарканд, Узбекистан

Аннотация

В статье представлены идеи о важности психологических знаний для повышения качества образования в системе подготовки будущих учителей. Также отмечается необходимость уделять внимание содержанию и сущности знаний, предоставляемых учащимся.

Ключевые слова: компетентность, стресс, интеллект, самостоятельное мышление, критическое мышление.

THE ROLE OF PSYCHOLOGICAL KNOWLEDGE IN TRAINING FUTURE TEACHERS

Abdumannotova Nargiza Abdumajidovna
Teacher of Samarkand State Pedagogical Institute
Samarkand, Uzbekistan

Abstract

This article presents ideas on the importance of psychological knowledge in improving the quality of education in the system of training future teachers. It also says that it is necessary to pay attention to the content and essence of the knowledge given to students.

Keywords: competence, stress, intellect, independent thought, critical thinking.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish haqida fikr yuritib, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz",- deb takidlagan edi.

Ta'lim sifatini oshirish haqida gap borar ekan eng avvalo ta'lim jarayonini ishtirokchisi bo'lgan pedagoglarning sifati va bilim salohiyatiga e'tibor qaratishimiz lozim. Bu bejiz emas. Chunki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning natijasi ko'p jihatdan ta'lim-tarbiyaga kelib taqaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim- tarbiyani yuqori pog'onaga ko'tarilishi islohotlarning pedagogik kafolatini ta'minlaydi.

Ammo, bu borada amalga oshirilayotgan ishlar davr talablaridan orqada qolayotganligi rost. Ayniqsa keyingi yillarda ta'lim sifatining pasayib ketayotganligi achinarli hol.

Davlatimiz raxbarining 2018-yil 5-sentyabrida qabul qulgan PF- 5538 sonli "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha chora- tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida, "Ta'lim sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning bilim darajasini va pedagogik maxoratini oshirish masalalarida umumta'lim muassasalari faoliyatidagi ochiqlik va shaffoflik darajasining etarli darajada emasligi, o'quv- tarbiya jarayoni ustudan samarali jamoatchilik nazoratining mavjud emasligi"; ta'limning sifat va samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotganligi aniq ko'rsatib berildi.

Shuningdek kadrlar tayyorlash milliy dasturida "Pedagog kadrlarni Har jihatdan yetuk mutaxasis bo'lib faoliyatini amalga oshirish ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni ko'zlovchi tizim vujudga keltiriladi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo'llab- quvvatlash ta'minlanadi",- deyiladi.

Muhtaram Prezidentimizning "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimi faoliyatini yaxshilash maqsadida "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha hududiy markazlar tuzulmasida metodik xizmat bo'limlari",- tashkil etilishi, "Pedagog kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy- huquqiy mexanizmlarini joriy etish" nazarda tutilganligi bevosita ta'lim sifatini yaxshilash uchun qo'yilgan dadil qadamlardan biridir. Haqiqatdan ham qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga kelgan tinglovchilardan olingan test, yozma ish natijalari kishini qanoatlantirmaydi.

Bo'lajak pedgog kadrlarni yetuk mutaxasis bo'lib yetishishlarida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- talaba-yoshlarni hissiy-irodaviy sohasini mustahkamlash,
- talaba-yoshlarda o'ziga ishonch hissini oshirish:
- bo'lajak pedagoglarda nutqiy sohasini rivojlantirish;

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda boshqa omillar qatori pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar zimmasiga ham mas'uliyat yuklaydi. To'g'risini aytganda birinchidan, ushbu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan barcha professor-o'qituvchilarning shaxsiy, kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetentlik darajalarini etarli deb bo'lmaydi. Pedagoglarning o'z ustida ishlashi, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikalari sohasidagi so'ngi yangiliklardan barcha o'qituvchilarni etarli darajada xabardor deb bo'lmaydi.

Ikkinchidan pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida amalda foydalanilayotgan o'quv reja va dasturlarni qaytadan ko'rib chiqish, bunda asosiy e'tiborni o'quv- metodik ishlarga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Uchunchidan hududiy markazlarning o'quv moddiy bazasini mustaxkamlash, ularni so'ngi nashr etilgan o'quv- metodik adabiyotlar, kompyuterlarning yangi markalari, yuqori tezlikda ishlaydigan internet tarmoqlariga ulanishi kabi muammolarni bartaraf etish;

To'rtinchidan xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yaxshilash uchun ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kerak;

Beshinchidan xududiy markazlarning professor- o'qituvchilari bilan viloyat, shaxar, tuman, xalq ta'limi bo'limi mutasaddilarining hamda o'qituvchi murabbiylarining joylarda ta'lim-tarbiya muammolariga oid ochiq muloqotlarni o'tkazib turish, to'planib qolgan muammolarni hamkorlikda bartaraf etish shubhasiz ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimini davr talablariga ko'tarish uchun sohaga oid ilmiy- tadqiqot ishlariga e'tiborni qaratish, ushbu tizim bo'yicha himoya qilingan ilmiy tadqiqot ishlarida bildirilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotda qo'llashning vaqti etdi.

Tajriba va kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimiga oid tajribali professor – o'qituvchilar tamonidan tayyorlangan o'quv, uslubiy qo'llanmalarga va tavsiyalarga ehtiyoj mavjud.

Ta'limning sifati o'qituvchining bilimi va mahoratiga bog'liq. Shu bois, hududiy markazlarda faoliyat ko'rsatayotgan professor- o'qituvchilarning kreativligini oshirish va yuqorida bildirilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiiq etilishi davlatimiz raxbari tamonidan qo'yilgan vazifalarning amalda bajarilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5538 sonli Farmoni, 2018- yil 5- sentyabr.

<https://innovateconferences.org>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 3931 sonli qarori, 2018- yil 5-sentyabr.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: "Sharq" 1998.
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: "Sharq" 1998.